XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI DOIRASIDA SHAKLLANTIRISH VA ULARNING HOLATINI TAHLIL QILISH	821
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ	825
Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли	
TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI	830
Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI TAHLIL	834
Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li	
TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS	838
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA FOYDALANISH.....	843
Rustamov Narzillo Istamovich	
РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....	848
Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	854
Евгений Юрьевич Шек	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	860
Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли	
AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	870
Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR	873
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ	878
Самадов Эльёр Эркинович	
МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	



MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Axmedova Xumora Ibroxim qizi

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedra o'qituvchisi

Email: xumoraibragimovna@gmail.com

ORCID: [0009-0008-1953-2548](https://orcid.org/0009-0008-1953-2548)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida sanoat korxonalarining iqtisodiy mexanizmlari mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Xususan, resurslardan foydalanish samaradorligi, moliyaviy rag'batlantirish tizimlari, investitsiya mexanizmlari hamda ishlab chiqarish natijadorligini oshirishga ta'sir etuvchi boshqaruv omillarining roli kompleks tarzda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Mintaqa iqtisodiyoti, sanoat korxonalari, iqtisodiy mexanizmlar, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy rag'batlantirish, investitsiya faolligi, resurslardan foydalanish samaradorligi.

Abstract. This article presents a comprehensive theoretical and practical analysis of the priority areas for improving economic mechanisms in regional industrial enterprises. The study examines the economic mechanisms of industrial enterprises as one of the key factors ensuring sustainable regional economic development. Particular attention is paid to the efficiency of resource utilization, financial incentive systems, investment mechanisms, as well as managerial factors that influence production performance and overall enterprise effectiveness.

Keywords: Regional economy, industrial enterprises, economic mechanisms, management efficiency, financial incentives, investment activity.

Аннотация. В статье проводится всесторонний теоретический и практический анализ приоритетных направлений совершенствования экономических механизмов на промышленных предприятиях региона. Экономические механизмы промышленных предприятий рассматриваются как важнейший фактор обеспечения устойчивого социально-экономического развития региона. В рамках исследования комплексно анализируются эффективность использования ресурсов, системы финансового стимулирования, инвестиционные механизмы, а также управленческие факторы, оказывающие влияние на результаты производственной деятельности.

Ключевые слова: Региональная экономика, промышленные предприятия, экономические механизмы, эффективность управления, финансовое стимулирование, инвестиционная активность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan sanoat korxonalarining faoliyati va ularni boshqarishda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligiga bog'liq. Sanoat korxonalari mintaqaning yalpi hududiy mahsulotini shakllantirish, bandlikni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion rivojlanishga turtki beruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy mexanizmlarni zamon talablari asosida takomillashtirish masalasi nafaqat alohida korxona darajasida, balki butun mintqa iqtisodiy tizimi nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi [1]. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab mintaqalarda sanoat korxonalarida amal qilayotgan iqtisodiy mexanizmlar eskirgan yondashuvlarga tayanadi, resurslardan foydalanish samaradorligi past, moliyaviy rag'batlantirish vositalari esa ishlab chiqarish natijadorligini to'liq qo'llab-quvvatlamaydi. Natijada, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari mintaqaning real iqtisodiy salohiyatiga mos kelmayapti.



Bu holat iqtisodiy mexanizmlarni chuqur ilmiy tahlil qilish va ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash zaruratini kuchaytiradi [2]. Shu bilan birga, mintaqaviy sanoat siyosati va korxona darajasidagi iqtisodiy mexanizmlar o'rtasida muvofiqlashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ko'plab tadqiqotlarda sanoat rivoji umumiy statistik ko'rsatkichlar asosida baholanib, korxonalarning ichki iqtisodiy mexanizmlariga chuqur e'tibor qaratilmaydi. Aslida esa, investitsiya jalb etish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish kabi masalalar bevosita iqtisodiy mexanizmlarning sifatiga bog'liqdir [3].

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning mintqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholash hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish, korxona boshqaruvida iqtisodiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutiladi [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari iqtisodiyot nazariyasi va mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalarida muhim o'rin egallaydi. Klassik va neoklassik yondashuvlarda sanoat korxonalarining iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi, xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirish orqali izohlangan [1]. Keyingi tadqiqotlarda esa ushbu mexanizmlar faqat mikroiqtisodiy darajada emas, balki mintaqaviy iqtisodiy tizim bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqila boshlandi. Jumladan, mintaqaviy sanoat rivojining barqarorligi korxonalarda amal qilayotgan moliyaviy, investitsion va rag'batlantiruvchi mexanizmlarning sifatiga bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [2]. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalasi institutsional yondashuv asosida talqin qilinib, davlat, bozor va korxona manfaatlarini uyg'unligi muhim shart sifatida qaraladi. Ayrim tadqiqotchilar mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarning samarasizligi asosan institutsional muhitning nomukammalligi, investitsiya xavflarining yuqoriligi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanishini ta'kidlaydi [3]. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish innovatsion faollik, texnologik yangilanish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bilan chambarchas bog'liq ekani ko'rsatib berilgan [4]. O'zbekiston va MDH olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mintqa sanoat korxonalarini rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlarning hududiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Ularning fikricha, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish mintaqaning resurs salohiyati, tarmoq tuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda amalga oshirilishi lozim [5]. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlarda iqtisodiy mexanizmlarning mintqa sanoat rivojiga ta'siri umumiy tavsifda yoritilib, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va ularni amaliy jihatdan baholash yetarli darajada chuqurlashtirilmagan. Mazkur holat tanlangan mavzuning ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi va qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va baholash uchun tizimli va kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, sanoat korxonalarining iqtisodiy mexanizmlari mintqa iqtisodiy rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Empirik tahlilda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida sanoat ishlab chiqarishi hajmi, investitsiya faolligi, mehnat unumdorligi va moliyaviy natijalar kabi asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilindi, bu esa iqtisodiy mexanizmlarning samaradorlikka ta'sirini aniqlash imkonini berdi [1]. Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi shakllantirilib, ularning mintqa sanoat rivojiga ta'siri korxona darajasida baholandi. Metodologik asos sifatida institutsional va mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalariga tayangan holda, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar aniqlanib, ularni amalga oshirishning ilmiy-amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalar iqtisodiy mantiq va statistik tahlil uyg'unligida asoslanib, mintqa sanoat siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirishga xizmat qiladi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda mintqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarning amaldagi holati va ularni takomillashtirish zarurati empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida sanoat ishlab chiqarishi dinamikasi, investitsiya faolligi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv iqtisodiy mexanizmlarning mintqa sanoat rivojiga real ta'sirini aniqlash imkonini berdi.



1-jadval. Mintaqa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari dinamikasi [13]

Yillar	Sanoat ishlab chiqarishi hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati, %
2021	45 200	107,8
2022	52 600	116,4
2023	59 900	113,9

Jadval ma'lumotlari mintaqa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib borayotganini ko'rsatadi. Biroq o'sish sur'atlarining notekisligi iqtisodiy mexanizmlarning barqaror ishlamayotganidan dalolat beradi. Xususan, ishlab chiqarish hajmining o'sishi ko'proq ekstensiv omillar hisobiga ta'minlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada oshmagan. Bu holat iqtisodiy mexanizmlarni sifat jihatidan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

2-jadval. Mintaqa sanoat korxonalarida investitsiya faolligi va uning samaradorligi

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023
Asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd so'm)	8 400	10 200	11 800
Investitsiya o'sish sur'ati, %	109,5	121,4	115,7
Investitsiya samaradorligi indeksi*	0,82	0,87	0,89

Izoh: investitsiya samaradorligi indeksi – ishlab chiqarish hajmining investitsiyaga nisbati asosida hisoblangan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mintaqa sanoat korxonalarida investitsiya hajmi ortib bormoqda va bu ishlab chiqarish o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, investitsiya samaradorligi indeksining sekin o'sishi iqtisodiy mexanizmlarda moliyaviy resurslarni taqsimlash va nazorat qilish tizimlari yetarlicha takomillashmaganini ko'rsatadi. Demak, investitsiya mexanizmlarini ishlab chiqarish natijadorligi bilan bevosita bog'lovchi boshqaruv instrumentlarini kuchaytirish zarur.

3-jadval. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023
Mehnat unumdorligi (mln so'm/kishi)	186	205	228
Rentabellik darajasi, %	12,4	13,8	14,6
Xarajatlar samaradorligi indeksi	0,76	0,79	0,83

Ushbu jadval sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Mehnat unumdorligi va rentabellik darajasining o'sishi iqtisodiy mexanizmlarni qisman takomillashtirish natijasida erishilganini ko'rsatadi. Biroq xarajatlar samaradorligi indeksining nisbatan pastligi resurslardan foydalanishda ichki zaxiralar to'liq ishga solinmaganini anglatadi. Bu esa iqtisodiy mexanizmlarni yanada optimallashtirish, xarajatlarni boshqarish va rag'batlantirish tizimlarini kuchaytirishni talab etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faolligini oshirishga ma'lum darajada xizmat qilmoqda. Biroq ularning samaradorligi barqaror va yuqori darajada emas. Asosiy muammo iqtisodiy mexanizmlarning mintaqaviy sanoat siyosati bilan yetarli darajada integratsiyalashmaganligida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda resurs samaradorligi, investitsiya natijadorligi va rentabellikni kompleks boshqarish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarning amaldagi holati sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi barqaror va yetarli darajada

yuqori emasligini ko'rsatdi. Ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faolligining o'sishi asosan ekstensiv omillar hisobiga ta'minlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi va xarajatlarni boshqarish tizimlarida jiddiy nomukammalliklar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, investitsiya mexanizmlarining ishlab chiqarish natijalari bilan bevosita bog'lanmaganligi iqtisodiy mexanizmlarning mintaqa sanoat rivojiga to'liq ta'sir ko'rsata olmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, tadqiqotda mintaqaviy sanoat siyosati va korxona darajasidagi iqtisodiy mexanizmlar o'rtasida tizimli uzilishlar mavjudligi aniqlandi. Ko'plab sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlar alohida elementlar sifatida ishlayotgan bo'lib, ularning yagona boshqaruv tizimi sifatida integratsiyalashuvi yetarli darajada ta'minlanmagan. Natijada, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi va mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi to'liq namoyon bo'lmayapti. Bu holat iqtisodiy mexanizmlarni chuqur modernizatsiya qilish va ularni mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi va quyidagi tavsiyalar asosida qayta ko'rib chiqihimiz mumkin.

1. Iqtisodiy mexanizmlarni tizimli integratsiyalash

Mintaqa sanoat korxonalarida moliyaviy, investitsion va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yagona boshqaruv tizimi sifatida shakllantirish, ularning mintaqaviy sanoat siyosati bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash zarur.

2. Resurslar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mexanizmlarni joriy etish

Mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilib, ular asosida xarajatlarni boshqarish va ishlab chiqarish tannaxini pasaytirish choralarini kuchaytirish lozim.

3. Investitsiya mexanizmlarini natijadorlik asosida baholash

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini ishlab chiqarish hajmi, rentabellik va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Rag'batlantirish va motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish

Sanoat korxonalarida iqtisodiy rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqarish natijalari va samaradorlik ko'rsatkichlari asosida qayta ko'rib chiqish, bu orqali boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlarining manfaatdorligini oshirish zarur.

5. Monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish

Mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini doimiy monitoring qilish va baholashga xizmat qiluvchi analitik tizimlarni joriy etish, ularning natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yo'lga qo'yish lozim.

Tadqiqot natijalari mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilayotganini, biroq ularning samaradorligi asosan ekstensiv omillar bilan cheklanib qolayotganini ko'rsatdi. Shu bois iqtisodiy mexanizmlarni tizimli ravishda modernizatsiya qilish va ularni mintaqaviy sanoat rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. Free Press.
2. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2018). International economics: Theory and policy (10th ed.). Pearson Education.
3. North, D. C. (1991). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press.
4. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). Economics (19th ed.). McGraw-Hill Education.
5. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). Economic development (12th ed.). Pearson Education.
6. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. Crown Business.
7. Schumpeter, J. A. (1934). The theory of economic development. Harvard University Press.
8. Rodrik, D. (2004). Industrial policy for the twenty-first century. Harvard University.
9. Asatullaev, X. A. (2019). Mintaqaviy iqtisodiyot va sanoat siyosati. Iqtisodiyot.
10. Abdukarimov, B. A. (2020). Sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari. Fan va texnologiya.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent.
13. O'zbekenergo AJ. (n.d.). Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar dasturlarining amalga oshirilishi. https://uzeng.uz/uz/press_center/news/sanoat-ishlab-chiqarishining-rivojlanishi-iqtisodiyotda-tarkibiy-o-zgartirishlar-dasturlarining-amal/

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100